



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Наманган вилояти

Namangan viloyati 160100, Namangan shahri, A.Temur ko'chasi, 105-uy, Tel. (69)-233-02-50, E-mail:
namexpert@umail.uz www.mc.uz www.mc.uz

Holati: Tasdiqlandi

Direktor: Isakdjanov Avazbek Ismondjonovich

Sana:09-08-2021 yil



Yig'ma ekspert xulosasi № 17653

Obyekt nomi «Namangan shahridagi Shimoliy Farg'ona magistral kanalining PK411+00 dan PK426+74 gacha bo'lgan qismini obodonlashtirish»

Buyurtmachi - "NAMANGANSUVQURILISH INVEST" davlat muassasasi

Bosh loyihachi - "SUVLOYIXA" DUK Namangan filiali

Litsenziya AL-000694 30.04.2020-yilda O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi tomonidan berilgan

Moliyalashtirish manbai - Byudjet

Bosh pudratchi - Tender asosida

Qurilish turi Rekonstruksiya

Murojaat raqami: № 16592

1. Loyihalash uchun asos

1.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-apreldagi PQ-5084-sonli qarori.

1.2. Namangan viloyati Hokimining 2021-yil 1-maydagi 284-sonli qarori.

1.3. Namangan viloyat Hokimining o'rinbosari tomonidan tasdiqlangan, Namangan viloyati Qurilish bosh boshqarmasi va buyurtmachi bilan kelishilgan loyiha topshirig'i.

1.4. Namangan viloyat Qurilish bosh boshqarmasi tomonidan berilgan 2021-yil 4-iyuldagi 1714-1714401-23759-sonli arxitektura rejalashtirish topshirig'i.

1.5. "Shimoliy Farg'ona magistral kanali" boshqarma boshlig'i tomonidan tasdiqlangan nuqson dalolatnoma.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar

2.1. "Ishchi loyiha"ni ishlab chiqish bosqichidagi loyiha hujjatlari:

- Umumiy tushuntirish yozuvi.

- Shimoliy Farg'ona magistral kanalining PK411+00 dan PK426+74 gacha bo'lgan qismi bosh rejasi, qirqimlar va tugunlar, chizmalar va qaydnomalar, yoritish tizimi va elektr ta'minoti.

- Sug'orish tizimi (Tushuntirish yozuvi, bosh reja, chizmalar va qaydnomalar, tashqi elektr ta'minoti).

- Ko'kalamzorlashtirish (Tushuntirish yozuvi, bosh reja, ish xajmi qaydnomalari).

- Kichik me'moriy inshootlar.
- Qurilish qiymatining tavsiyaviy qismi.
- O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi "O'zsuvekspertiza" DUKning 2021-yil 22-iyundagi 234-sonli xati.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni

3.1. Ishchi loyihani maksadi.

Namangan viloyati Namangan shahri hududidan oqib o'tuvchi "SHFMK" kanalini PK411+00 dan PK 426+74 gacha bo'lgan qismida kanal qiyaliklarini yaxlit beton qoplama bilan mustahkamlab, kanaldan suv sizishini (filtratsiyani) kamaytirish, kanalni 1,574 km qismining texnik holatini yaxshilash hamda chap va o'ng qirg'oqdagi 6921m²-maydonni obodonlash loyihalangan.

3.2. Loyihaning asosiy yechimlari.

1. Kanal.

PK411+00 dan PK427+54 gacha "SHFMK" filtrlashni kamaytirish va kanalning o'ng va chap qirg'oqlarida 1,574 uzunligi kismning texnik holat axshilash o'ng va chap yon bag'irlarini t-20mm.qalinlikda V15 markali yaxlit beton bilan qoplash ko'zda tutilgan.

2.Piyodalar va velosiped yo'laklari.

Loyihada piyodalar zonasi va veloyo'laklar uchun beton plitkadan jami 5349 m² yo'lak qurish ko'zda tutilgan, shu jumladan - 3983 m² piyodalar zonasi va 1366 m² - veloyo'laklar. Bundan tashqari uzunligi 379 metr temir-beton bordyurlar o'rnatish nazarda tutilgan. Xavfsizlikni ta'minlash maqsadida piyodalar yo'lagi chetlariga metall to'siqlari o'rnatish loyihalangan.

3. Sug'orish tarmog'i.

Loyihada 2 uchastkada sug'orish tizimini qurish ko'zda tutilgan bo'lib, turli xil diametrdagi plastmassa quvurlardan tashkil topgan. Quvurlarni yotqizish chuqurligi 0,3 metrni tashkil etadi. Tarmoqda metall quvurdan kameralar o'rnatish ko'zda tutilgan. Sug'orish uchun suv purkagichlar o'rnatish loyihalangan. Sug'orish tizimini tashkil etish uchun individual loyiha asosida nasosxona bino qurish nazarda tutilgan. Sho'ningdek tashqari hududni sug'orish va yog'ingarchilikdan so'ng hosil bo'ladigan yer osti suvlari chiqarib tashlash maqsadida polietilen gofra quvarlardan mahalliy yopiq gorizontol drenaj qurish loyihalangan.

4. Tashqi yoritish tizimi.

Loyixalanayotgan tarmoqda turli kesimdagi AVVG markadagi kabellar ko'zda tutilgan. Kabellar 0,5-0,7 metr chukurlikda yotqiziladi. Tarmoq kuchlanishi-0,4kv. Ko'cha yo'llarini yoritish uchun individual metall tayanchlarga o'rnatilgan "LED" chiroqlar ko'zda tutilgan.

5. Qo'klamzorlashtirish.

Loyihada 1382 dona manzarali ko'chatlar ekish va 2073 m²-maydonni ko'klamzorlashtirish ko'zda tutilgan.

6. Yordamchi bino va inshootlar.

Loyihada 4 dona uycha, "Workout" maydoni, biohojatxona, temir-beton zinapoyalar qurish, skameykalar o'rnatish ko'zda tutilgan.

3.3. Asosiy ko'rsatkichlari.

- Kanalni obodonlashtirilayotgan qismining uzunligi - 1,574 km;

- Obodonlashtiriladigan umumiy maydon - 6921 m²;
- Kanalni obodonlashtirilayotgan qismida suv o'tkazish qobiliyati - 110 m³/sek.

3.4. Qurilish davomiyligi.

Qurilish davomiyligi - 8 oy.

4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:

4.1. *Sug'orish tizimi suv ta'minoti* - Shimoliy Farg'ona magistral kanalining 3.08.2021-yildagi 01/01-125-sonli texnik shartiga muvofiq nazarda tutilgan. Ulanish nuqtasi etib SHFMK qabul qilingan.

4.2. *1-uchastka yoritish elektr ta'minoti* - "Namangan hududiy elektr tarmoqlari korxonasi" AJning 5.08.2021-yildagi 35-18/1098-sonli texnik shartiga muvofiq nazarda tutilgan. Ulanish nuqtasi etib TPN_№130/250 kVAning 0,4 kv shinalar sistemasi alohida kommutatsion apparat o'rnatish orqali qabul qilingan. Loyihada KTPk-25/10/0,4 kv va AIISKUE tizimi o'rnatish ko'zda tutilgan.

4.3. *2-uchastka yoritish elektr ta'minoti* - "Namangan hududiy elektr tarmoqlari korxonasi" AJning 5.08.2021-yildagi 35-18/1099-sonli texnik shartiga muvofiq nazarda tutilgan. Ulanish nuqtasi etib p/st 110/6 kVli "Shimoliy" dan chiqqan "RP-Nurqurilma" dan chiquvchi 6 kVli "129" elektr uzatish tarmog'ining yaqin nuqtasi qabul qilingan. Loyihada KTPk-40/10/0,4 kv va AIISKUE tizimi o'rnatish ko'zda tutilgan.

4.4. *Sug'orish tizimi elektr ta'minoti* - "Namangan hududiy elektr tarmoqlari korxonasi" AJning 28.06.2021-yildagi 35-18/0874-sonli texnik shartiga muvofiq nazarda tutilgan. Ulanish nuqtasi etib p/st 110/6 kVli "Kimyogar" dan chiqqan 6 kVli "MEZ-2" elektr uzatish tarmog'ining yaqin nuqtasi qabul qilingan. Loyihada KTPs-63/10/0,4 kv va AIISKUE tizimi o'rnatish ko'zda tutilgan.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

- Bosh reja Shimoliy Farg'ona magistral kanali boshqarmasi, "Norin-Sirdaryo" ITHB, Namangan viloyat Qurilish bosh boshqarmasi, Namangan shahar obodonlashtirish boshqarmasi va buyurtmachi bilan kelishilgan.

- Yoritish tizimi va elektr uzatish tarmog'i rejasi Namangan shahar "Markaz" elektr ta'minoti korxonasi bilan kelishilgan.

- "Norin-Sirdaryo" ITXB boshlig'i tomonidan tasdiqlangan texnik Kengash bayoni.

6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Ta'kidlansinki, ekspertiza qarovi jarayonida loyiha hujjatlariga quyidagi o'zgartirish va ko'shimchalar kiritildi (muayyan ekspertiza xulosasidagi kamchiliklarga ko'ra):

6.1.1. Obodonlashtirish bosh rejasi - ishlab chiqildi va unda piyodalar, velosipedchilar yo'lakchalari, panjara to'siqlar oraliq o'lchamlari, hojatxona va uychalar joylashuvi - belgilandi.

6.1.2. Piyodalar yo'lagi, velosipedchilar yo'lagi va temir to'siqlar fundamentlari chizmalari - ishlab chiqildi.

6.1.3. Nasosxona chizmalari - taqdim etildi.

6.1.4. Bosh rejada temir-beton zinalar joylashadigan joyiga qiyalik va uzunligi - o'zgartirildi.

6.1.5. Temir-beton zinalar uchun tayanch poydevorlari, zina ikki tomondan panjara -berildi va umumiy xarajatlari spetsifikatsiyada - ko'rsatildi.

SHFMK kanal.

6.1.2. Tushuntirish xatida ish xajmi ishlari jadvaliga oralik 528 metr qismi xarajatlari → kiritildi.

6.1.3. Bo'ylama qirqim chizmasi – to'g'rilandi.

6.1.4. Gidravlik hisobot 1574 metrga – qayta →hisoblandi.

6.1.5. Ko'ndalang qirqim chizmasi – to'g'rilandi.

6.1.6. Beton devorning gidroizolyatsiya chora tadbir chizmasi → → ishlandi.

6.1.7. Trassa rejasi chizmalari – o'zgartirildi.

Sug'orish tizimi.

6.1.8. SHFMKdan sug'orish uchun texnik shart → taqdim etildi.

6.1.9. Quvurlarni sug'orish tizimida quvur diametrini tanlash yechimi va umumiy tarmoq tizimi gidravlik hisobi – taqdim etildi.

6.1.10. Umumiy tushuntiruv yozuvida purkagichlar (dojdevatel) xaqida ma'lumotlar – ko'rsatildi.

6.1.11. Nasosxonada ta'mirlash davrida yoki avariya holatda suvni chiqarish tizimi (priyamok) – ko'zda tutildi.

6.1.12. Nasos quvvatini nasadkalar soni va ularning soatlik suv sarfini inobatga olgan xolda tanlash hisobi – taqdim etildi.

6.1.13. Sug'orish tizimida ajratilgan uchastkalar va sug'orish davomiyligi xaqida ma'lumotlar – taqdim etildi.

6.1.14. Nasosxona texnologik jixozlar va quvurlar aksonometrik chizmalari xar bir jixoz raqami va quvur otmetkasi bilan – ko'rsatildi.

6.1.15. Yomg'irlatib sug'orish tizimida purkagichlarni tiqilishini oldini olish yechimi – ko'zda tutildi.

6.2. Qurilish bahosini hisoblash.

Ekspertizaga taqdim qilingan – 13465861,702 ming so'm QQS bilan qurilish bahosi 2728194,583 ming so'mga kamaytirilib, ekspertiza natijasiga ko'ra QQS bilan qurilish qilish bahosi – **10737667,119 ming so'mga** tavsiya etildi.

Bundan tashqari buyurtmachining boshqa xarajatlari – **487588,163 ming so'm.**

Qurilish bahosini kamaytirishga ish xajmlariga aniqlik kiritish, asosiy qurilish materiallari narxlari, ishchilar ish xaqi, pudratchining boshqa xarajatlarini kamayishi hisobiga erishildi.

6.3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.01.2016-yildagi 15-son qarorining 4 ilova, II-bob, 8-bandiga muvofiq taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (loyihalash jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarning ishonchliligi nuqtai nazaridan) va loyihachiga (qabul qilingan loyihaviy yechimlari bo'yicha) yuklatiladi.

7. Xulosalar.

7.1. Namangan shahridagi Shimoliy Farg'ona magistral kanalining PK411+00 dan PK426+74 gacha bo'lgan qismini obodonlashtirish ishchi loyihasi ekspertiza natijalarini hisobga olgan xolda kelgusida ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun tavsiya etiladi. Tavsiya etilgan narx shartnoma tuzish uchun asos bo'la olmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003-yildagi 261-sonli qarori va SHNQ 4.01.16-09ga muvofiq tender savdolarini o'tkazish uchun tavsiya etilgan dastlabki bahoni buyurtmachi qabul qiladi.

Izoh: Buyurtmachi va loyihachi tender savdolari o'tkazilgunga qadar ishchi loyihani barcha manfaatdor tashkilotlar bilan o'rnatilgan tartibda kelishishi lozim.

Ekspertlar: A.Xoshimov, S.Madraximov, I.Karimov, T.Maxkamov

Bosh mutaxassis: Abdunazarov Nemadjon Abdurazakovich